



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI



2023- YIL YANVAR- FEVRAL


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KORSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- mart holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 37 267 tani tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning fevral oyida jami 848 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalariga nisbati 2,3 % ni tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya‘ni 7 177 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 19,3 % i Toshkent shahrida joylashgan.

2023- yil 1-mart holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda




Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida 3 059 ta (respublika bo‘yicha jami qurilish korxonalarining 8,2 % i) va Toshkent viloyatida 3 006 ta (8,1 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

Hududlar kesimida

Toshkent sh.	7 177
Qashqadaryo	3 059
Toshkent	3 006
Farg‘ona	2 905
Samarqand	2 792
Buxoro	2 791
Andijon	2 669
Surxondaryo	2 586
Qoraqalpog‘iston R.	2 055
Namangan	1 940
Xorazm	1 793
Navoiy	1 652
Jizzax	1 629
Sirdaryo	1 213


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 12 948,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 91,8 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda



2019

2020

2021

2022

2023

Yillar kesimida oldingi yilning mos davriga nisbati



2019

2020

2021


2022

2023

Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda




4 124,8 mlrd. so‘m



Toshkent shahri

1 437,1 mlrd. so‘m



Toshkent viloyati

897,7 mlrd. so‘m



Samarqand viloyati

2023- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (4 124,8 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (1 437,1 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (897,7 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-fevral oylarida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 64,9 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 90,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,3 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 81,2 % ni tashkil etdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, jamiga nisbatan % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm


8 400,3



2 825,7



1 722,0



Bino va inshootlar qurish



Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qilish ishlari

Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 62,7 % i yoki 8 114,7 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtmoyiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



1 075,6
mlrd. soʻm
13,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 075,6 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 13,3 % ni tashkil etdi.





5 007,4
mlrd. soʻm
61,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 5 007,4 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 61,7 % ni tashkil etdi.






2 031,7
mlrd. soʻm
25,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 2 031,7 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 25,0 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishning ulushi



Yillar kesimida hajmi, mlrd. soʻmda



2023- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
O'zbekiston Respublikasi*	8 114,7	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	396,7	4,9
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	414,4	5,1
Buxoro	308,5	3,8
Jizzax	236,8	2,9
Qashqadaryo	497,2	6,1
Navoiy	396,7	4,9
Namangan	507,5	6,3
Samarqand	613,4	7,6
Surxondaryo	445,9	5,5
Sirdaryo	199,5	2,5
Toshkent	813,4	10,0
Farg'ona	586,2	7,2
Xorazm	311,5	3,8
Toshkent sh.	2 310,0	28,5

*hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda



Toshkent sh.
2 310,0 mlrd. so'm



Toshkent viloyati
813,4 mlrd. so'm




Samarqand viloyati
613,4 mlrd. so'm

2023- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (2 310,0 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (813,4 mlrd. so'm), Samarqand viloyati (613,4 mlrd. so'm) va Farg'ona viloyatida (586,2 mlrd. so'm) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 8 400,3 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)”ga muvofiq **“Qurilish” faoliyati bo‘yicha “faoliyat turi bo‘yicha o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi”** ko‘rsatkichi qo‘llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish ishlarining 2022-yilning mos davriga nisbati

82,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari

90,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

94,9 %

Norasmiy sektor




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 10,4 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 61,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,9 % punktga ko'payib, 27,8 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi va ulushi, mlrd. soʻm va foizda



Jizzax viloyati **81,5 %**



Fargʻona viloyati **77,5 %**



Andijon viloyati **76,6 %**

Maʼlumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 81,5 % i), Fargʻona viloyati (77,5 %) va Andijon viloyati (76,6 %) da kuzatildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha


Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*

521,7



Yirik qurilish tashkilotlari

2 302,1



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

1,9



Norasmiy sektor

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Jami hajmdagi ulushi



18,4 %



81,5 %



0,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari

Hajm – **521,7** mlrd. so'm
2022-yilning mos davriga nisbatan – **96,9** %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hajm – **2 302,1** mlrd. so'm
2022-yilning mos davriga nisbatan – **105,3** %


Norasmiy sektor

Hajm – **1,9** mlrd. so'm
2022-yilning mos davriga nisbatan – **13,4** %

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 18,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 81,5 % (1,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi (0,4 % punktga kamayish).

2023- yilning yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi va ulushi, *mlrd. so'm va foizda*



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 67,7 % i), Qoraqalpog'iston Respublikasi (27,6 %) va Xorazm viloyati (26,7 %)da kuzatildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*

244,9

1 477,1



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Jami hajmdagi ulushi



14,2 %



85,8 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 2022- yilning mos davriga nisbatan

79,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari

81,5 %


Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga kamaydi va 14,2 % ni tashkil etdi.

Qolgan 85,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,4 % punktga ko'paydi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va ulushi, *mlrd. so'm va foizda*



22,1 %



Namangan viloyati

18,3 %



Buxoro viloyati

18,1 %



Toshkent viloyati

Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 22,1 % i), Buxoro viloyati (18,3 %) va Toshkent viloyatida (18,1 %) kuzatildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*

1 638,5



Yirik qurilish tashkilotlari

8 969,7



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2 339,8



Norasmiy sektor

Jami hajmga nisbatan ulushi

12,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari

2022-yilning mos davriga nisbatan –
85,9 %

69,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davriga nisbatan –
92,3 %

18,1 %

Norasmiy sektor

2022-yilning mos davriga nisbatan –
94,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 638,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 1,0 % ga kamayib, 12,6 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari, ulushi

13,6 %

12,6 %

2022- yil yanvar-fevral

2023- yil yanvar-fevral

Hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati, yillar bo'yicha

874,5

mlrd. so'm

1 242,2

mlrd. so'm

1 296,9

mlrd. so'm

1 746,0

mlrd. so'm

1 638,5

mlrd. so'm

107,8 %

124,8 %

93,2 %

113,8 %

85,9 %



2019



2020



2021




2022




2023

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so'm va foizda



Jami hajmga nisbatan ulushi



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 18,4 % i), Toshkent viloyati (16,6 %) va Samarqand viloyatida (16,4 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,3 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 92,3 % ni tashkil etgan holda 8 969,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi

73,3 %



2019

71,5 %



2020

70,1 %



2021

69,4 %



2022

69,3 %



2023

Yillar bo'yicha hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati

6 603,4

mlrd. so'm

2,5 m

2019

7 786,3

mlrd. so'm

103,0 %

2020

7 498,0

mlrd. so'm

85,9 %

2021

8 900,5

mlrd. so'm

100,2 %

2022

8 969,7


mlrd. so'm

92,3 %

2023

2023- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda



3 071,7 mlrd. so‘m
Toshkent shahar



831,3 mlrd. so‘m
Toshkent viloyati



645,7 mlrd. so‘m
Samarqand viloyati

Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (3 071,7 mlrd. so‘m), Toshkent viloyatida (831,3 mlrd. so‘m) va Samarqand viloyatida (645,7 mlrd. so‘m) qayd etildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 18,1 % ni yoki 2 339,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,5 % ni tashkil etdi. Shundan 1 709,8 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,3 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 321,9 mlrd. so'mni va 85,5 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 308,1 mlrd. so'mni va 94,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor, ulushi foizda

17,0 %

18,1 %

2022- yil yanvar-fevral

2023- yil yanvar-fevral

Yillar bo'yicha hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati

1 525,8
mlrd. so'm

1 854,9
mlrd. so'm

1 895,9
mlrd. so'm

2 178,5
mlrd. so'm

2 339,8
mlrd. so'm


96,8 %

106,7 %

88,8 %

105,1 %

94,5 %



2019



2020



2021




2022



2023

2023- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda



481,9 mlrd. so‘m
Toshkent shahri



366,7 mlrd. so‘m
Toshkent viloyati



220,6 mlrd. so‘m
Qashqadaryo viloyati


Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (481,9 mlrd. so‘m), Toshkent viloyatida (366,7 mlrd. so‘m) va Qashqadaryo viloyatida (220,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 520,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 12 427,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.



yanvar-fevral oylaridagi hajm, mlrd. so'mda



Davlat mulkchiligi

Nodavlat mulkchiligi

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,4 % i), Toshkent shahrida (qurilish ishlari umumiy hajmining 99,1 % i) va Surxondaryo viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,8 % i) qayd etildi.



Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki havf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.